

BIOTIBBIYOTDA TADQIQOTLAR ETIKASI VA BIOETIKA

Z.Abduazimova

Falsafa fanlari doktori PhD ALFRAGANUS UNIVERSITETI

Nodavlat oliy ta'lim muassasasi. Toshkent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10158238>

Dunyidagi har bir xalqning yoki millatning o'ziga xos axloqi va qadriyatlari bilan bir qatorda umumbashariy axloq me'yorlari ham bor ku bunday axloq me'yorlari jamiyatning umumiy taraqqiyotiga o'zining ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi. Axloqning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, u odamlarning harakatlariga korsatma bo'lib xizmat qiladi. Inson jamiyatda bo'layotgan yangilik va o'zgarishlarga o'z dunyoqarashi, mintaliteti, ma'naviy saviyasi, dini, qadriyatlari va shu kabi omillarga tayanib fikr bildiradi, xulosa chiqaradi. Jamiyatda qadriyat va dunyoqarashning plyralizmi tan olish, uning o'ziga xos xususiyti dunyoqarashining o'ziga xos xususiyati dunyoqarashning turli shakllarining xilma-xilligi va turli qadriyatlar tizimining tengligini tan olishdadir. Axloqiy, diniy va etnik g'oyalar va an'analardagi farqlar dialogni qiyinlashtirishi, shifokor va bemor, tibbiyot va jamiyat o'rtasida o'zaro tushunish muammolarini keltirib chiqarishi mumkin. Zamonaviy jamiyatda axloqiy muammolarni hal qilishda umume'tirof etilgan "mutaxassislar" yo'q. Odamlar turli xil axloqiy me'yorlar tizimi tomonidan boshqariladi. Shuning uchun, maxsus vakolatga ega bo'lgan mutaxassisni konsultatsiyaga chaqirish mumkin emas. Bu esa biotibbiy va bioetik vaziyatlarda fikr va qarashlarning turlicha ekanligida o'z ifodasini topadi. Bu masalada davlatimizning asosiy qomusi bo'lgan O'zbekiston Konstitutsiyasining 24-moddasida "Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir" deb mustahkamlab qo'yilgan. Doktor R. Sharp o'z kitobida shunday deb yozadi: — "Har yili Buyuk Britaniyaning o'zida ilmiy-tadqiqot laboratoriyalarida millionga yaqin hayvonlar azob chekadi va nobud bo'ladi. Ularni kuydirishadi, ustidan qaynoq suv quyishadi, zaharlashadi va ochdan o'ldirishadi, elektr razryadlar erdamida qiynoqqa solib, giyohvand moddalarga ko'niktirib qo'yishadi; muzlash nuqtasiga yaqin bo'lgan past darajadagi haroratlar ta'siriga yo'liqtirishadi, dunega kelishi bilan ularni zulmatda saqlashadi va ularda artrit, saraton, diabet, og'iz bo'shlig'i infektsiyasi, oshqozon yarasi, sifilis, herpes va OITS kabi kasalliklarni keltirib chiqarishadi. Jarrohlik yo'li bilan ularning ko'zlari olib tashlanadi, miyaga jarohatlar yetkazishadi va suyaklarini sindirishadi. Harbiy tadqiqotlar davomida hayvonlarni gaz, sianli birikmalar bilan zaharlab, plastik o'qlar bilan otib tashlashadi va kata tezlikda xarakatlanadigan zambarak o'qlari bilan tan jarohat yetkazishadi".¹ Yangi davrida mashhur ingliz faylasufi F.Bekon tibbiyot amaliyotini ilmiy asoslashni yoqlab chiqdi. U tibbiy usullarning dalillari yo'qligini tanqid qiladi (chunki ular, masalan, charlatanlar, asossiz shon-sharaf va shon-sharafga ega bo'lishlari mumkin). Ammo shu bilan birga, Bekon axloqiy mulohazalar tufayli inson tajribasini rivojlantirish qiyinchiliklarini tan oladi.

1754 yilda ingliz floti shifokori J. Lind maxsus tadqiqot o'tkazdi, iskorbitli dengizchilarning bir nechta guruhini olib, har biriga boshqa parhezni tayinladi. Natijalar ishonchli edi: faqat bemorlar tsitrus mevalarini qabul qilgan guruhda tuzalib ketdi, qolgan bemorlarning ahvoli og'irligicha qoldi. Bu parhez va salomatlik o'rtasidagi bog'liqlikni isbotladi (garchi o'sha paytda vitaminlar hali ma'lum emas edi). Keyinchalik, tsitrus mevalaridan foydalanish

¹ N.M.Yuldashev. Bioetika. T-2018.22-b.

iskorbitning oldini olish va davolash uchun majburiy amaliyotga aylandi.

Tibbiyot fani va amaliyotiga katta ta'sir ko'rsatgan birinchi tajriba emlash asoschisi ingliz shifokori Edvard Jenner (1749-1823) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot edi. Jennerning ta'kidlashicha, qishloq sog'uvchilari ko'pincha chechakka chalinadi, ammo ularning kasalligi engil bo'lib, keyin ular chechakka qarshi immunitetga ega bo'lishadi. 1796-yilda Jenner bolaga sigirning shishasidan olingan materialni ukol qilib, tajriba o'tkazdi. Keyinchalik bolaga chechak bilan emlanganda, kasallik rivojlanmagan. Jenner o'zi va boshqa odamlar ustida tajribalarni takrorladi. Evropa mamlakatlarida emlash qo'llanila boshlandi va keyinchalik chechak kamayishni boshladi.²

Zamonaviy bosqich. Tibbiy tadqiqotlar etikasining shakllanishidagi muhim voqea fashist shifokorlari ustidan sud jarayoni bo'ldi (1946-1947). Xalqaro sud tergovni davomida kontslager mahbuslariga nisbatan jinoiy eksperimentlarning ko'plab faktlari aniqlandi: qasddan halokatli infeksiyalar bilan yuqtirish, odamlarni muzli suvga cho'mdirish, kisloroddan mahrum qilish, zaharli gazlar bilan ta'sir qilish va boshqalar.

Sud tergovining natijalaridan biri birinchi marta odamlarda tibbiy tadqiqotlar o'tkazishning xalqaro axloqiy tamoyillarini shakllantirgan Nyurnberg kodeksining (1947) qoidalarini ishlab chiqish edi.

Kodeksda sub'ektning ixtiyoriy roziligi printsipli birinchi o'ringa qo'yildi. Tajribachilarga axborotlashtirilgan rozilik sifatini ta'minlash uchun shaxsiy mas'uliyat yuklangan. Kodeks, shuningdek, tadqiqot sub'ektlarini zarar, jismoniy va ruhiy azoblardan ishonchli himoya qilish zarurligini belgilab qo'ydi. Shunga qaramay, Kodeks darhol turli mamlakatlarda o'tkazilgan insoniy tadqiqotlar uchun rahbarlik hujjatiga aylanmadi.

Bioetika ekologik harakat mafkurasining shakllanish tarixida ilk bora qo'llanilgan. Ilmiy texnika yutuqlari insonga foydali jihatlarni olib kelish barobarida, tabiat va tirik mavjudotlarga jiddiy tahdid va yoqotishlar olib kelishini tarix o'zi isbotlab turibdi. Ekologik fikrlashning biotibbiyot sohasiga ta'siri, ayniqsa, 1966 yildagi talidomid halokatidan keyin kuchaydi. Bu fojia fan va amaliy tibbiyot o'rtasidagi munosabatlar strukturaning tubdan o'zgarishiga yordam berdi. 1966 yil Germaniyada yuz bergan talidamid fojiasi (ya'ni uxlatuvchi vosita sifatida talidamid qabul qilgan homiladorlar)

20 mingga yaqin bolaning nuqsonlar bilan (oyoq-qo'lsiz) tug'ilishi, ilmiy tadqiqotlar va klinik amaliyot o'rtasidagi aloqalami tubdan o'zgartirib yubordi. Biotibbiy tadqiqotlarning maqsadi sifatida endilikda nafaqat samarali dori-darmonlar va tibbiy buyumlarni ishlab chiqarish, balki ularning noxush oqibatlarini oldini olish ham inobatga olindi.

Tibbiyot soxasi va axloqining rivojlantirishi izchil davom etdi. Ilk bora bir insondan boshqa insonga yurakni ko'chirib o'kazish operatsiyasi amalga oshirilishi keng jamoatchilikni bu masala yuzasidan turlicha yondashuvlariga sabab bo'ldi. Janubiy Afrikalik jarroh Kristian Barnard 1967 yil 3 dekabrda tibbiyotda birinchi bo'lib muvofaqiyatli yurak transilyatsiyasini amalga oshirdi. U yuragi davolab bo'lmas darajadagi xasta bemorga, avtohalokat natijasida tuzatib bo'lmas holatdagi miya o'limi jarohatini olgan bemor ayolning urib turgan yuragini qo'ydi va operatsiya muvofaqiyatli bo'ldi.³ Ammo bu olamshumul inqilobiy hodisa yuzasidan jamoatchilik fikri va munosabati juda ziddiyatli bo'lib chiqdi. Ayrimlar uni qahramon sifatida,

² В.Ушаков.Биоэтика. ст-10. Москва-2016.

³ С.А.Давтян. «Биоэтика» стр-24 «Ереван» 2013

ayrimlar esa qotil sifatida gavdalantirishdi.

Kvinlan ishi 1975 yil 15 aprelda 21 yoshli amerikalik talaba Karen Kvinlen bilan sodir bo'lgan klinik tibbiyotning noyob hodisasidir. Spirtli ichimliklar va LSD ta'sirida u hushini yo'qotdi, kasalxonaga yotqizildi va "sun'iy o'pka-yurak" apparatiga ulandi. Bir muncha vaqt o'tgach, shifokorlar miyaning o'limini qayd etishdi, ammo uskuna o'chirilmadi. Bir oy o'tgach, nufuzli shifokorlar kengashi sodir bo'lgan o'zgarishlarning qaytarib bo'lmaydiganligini tasdiqlaganida va "vegetativ mavjudlik" faqat asbob-uskunalar tufayli davom etganida, qizning ota-onasi qurilmani o'chirishni va o'limga o'z ishini yakunlashiga imkon berishni so'radi, va ulardan qizlarini dafn etish va aza tutish talab qilindi. Ammo kasalxona ma'muriyati na qarindoshlari, na shifokorlar, na bemorning o'zi odamning hayoti va o'limi masalasini hal qilish huquqiga ega emasligini aytib, ularni rad etdi. Ota-onalar sudga da'vo qilishdi va tibbiyot tarixidagi birinchi sud jarayoni boshlandi, u bir yildan ortiq davom etdi. Eng shov-shuvlisi shundaki, uskuna AQSh Oliy sudining qarori bilan o'chirilganida Karenning tanasi o'z-o'zidan ishlashda davom etgan, ammo baribir "vegetativ" holatda, nol ensefalogramma bilan.⁴

Darhaqiqat inson barcha qulaylik va imkoniyatga ilm orqali erishgan. Insoniyat yaralibdiki u tabiatda yashab qolish uchun qaysidir ma'noda kurashgan va kurashmoqda. Sog'lom va mukammal yashash har bir davrda insonning hayotiy maqsadi bo'lgan va bu maqsad yo'lida u bazida turli qurbonliklarga sababchi bo'lgan. Buning natijasida axloqiy qadriyat va jamiyat qonuniyatlarida turli muammoli vaziyatlarni keltirib chiqargan. O'tmish va bugungi dunyo, undagi insonlar o'rtasida har tomonlama katta farq bor. Ildam integratsiyalashib borayotgan bugungi dunyo qanchalik taraqqiy etayotgan bo'lmasin unung o'z muammo va chigal masalalari, ilmiy izlanish, o'zgarish, yangiliklarni insoniylik doirasida, hal qilish lozimligini ko'rsatib turibdi. Shunday muammolardan biri bu bioetika masalasi bo'lib, u tabiat, inson, texnika omili o'rtasida muammolar va ularni bartaraf etish uchun axloqiy qadriyatlar va insonparvarlik munosabatlarini tartibga solish tarixiy zarurat bo'ganligi va bu yo'ldagi dolzarb muammo hamda jarayonlar axloqiy meyyorlar doirasida hal qilinishi lozimligini mavjud sharoitning o'zi taqozo etmoqda.

References:

1. N.M.Yuldashev. Bioetika. T-2018.22-b.
2. В.Ушаков.Биоэтика. ст-10. Москва-2016.
3. С.А.Давтян. «Биоэтика» стр-24 «Ереван» 2013
4. <https://knife.media/bioethics-wars/>

⁴ <https://knife.media/bioethics-wars/>